



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

# БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ- НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ

Халқаро илмий-амалий конференция

# МАТЕРИАЛЛАРИ



18-oktabr 2021-yil



tarbiyasidagi ўrni	
Ash ORUNBAYEV. Buhara folk soviet cumhuriyeti sanat alanidagi faaliyatlari	144
Лидия Харисовна Фанзова. Буларцы в Сибири: роль в развитии духовной и материальной культуры сибирских татар	147
Шадманова Нодира Исмагуллаевна. Фитрат ёшларнинг муслиқий-маданий тафаккурини шакллантиришда	152
Qurbonov Qo'ldosh Yo'ldoshevich. Dirijyorlik san'ati taraqqiyoti xususida	155
Muxamedov To'loqjon Djuraevich. Yoshlar tarbiyasining ma'naviy-axloqiy negizlari: yoshlar turmush madaniyatini rivojlantirishda bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning o'rni va ahamiyati	158
Sanoqul Do'stov. Milliy musiqamiz to'g'risida sharq olimlarining ilmiy qarashlari	161
Ботир Досимбетов. Мухаммадиёз Нимотий "Най ва Шамшод" асари	164
Xamdamova Sitara Rustam qizi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish	168
Tўxtasini Rажабов, Шамшод Ўрнинов. Бармоқ вази – халқ кўшиқларининг келими ўлчов шакли	169
Tўxtasini Rажабов, Махлуё Рустамова. Халқ кўшиқларида банд ва унинг кўринишлари	173
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, Sattorov Mirshod Erkinovich. The use of folklore in the physical education of preschoolers	177
Ethov Erkin Sattorovich. Psychological understandings of folklore works by young school children	179
<b>5-ШУЪБА. ТАСВИРИЙ ҲАМДА АМАЛИЙ САҢЪАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ</b>	
Azimov Sanjar Samadovich. Interfaol usullarni qo'llash orqali tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish	184
M.O.Ochilova, N.A.Rahimova. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati.	187
Aslanova N.X. Umumiy o'rta ta'lim maktab tasviriy san'at fanlarida interfaol usulda dars o'tish metodini qo'llash	189
G'aniyeva D.K. Dizayn san'ati va zamonaviy tendensiyalari, namunalar tahlili	191
Xakimova G.A, Jabborova G'uzal Odilovna. Buxoro amaliy san'atida mumtoz kompozitsiyalarning akslari	194
Azimova M.B. Buxoro tarixiy obidalaring tasviriy san'at tarixidagi o'rni	197
Avliyakulova Nafisa Muzafarovna, Umedov Shahzod Shokir o'g'li. Sharq miniatyurasi o'ziga xos xususiyatlari	198
Avezov Sherali Naimovich, Ishankulov Sherali Sharipovich. Amaliy perspektiva texnologiyalaridan foydalanishda talabalarining tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish	200
Dilshod Qodirovich Mamatov. Tasviriy amaliy darslarda ijodiy qobiliyatlarini o'stirish	202
Azimova Muxayyo Barotovna, Majidova Rayhon. Rahim Ahmedov xalq rassomi	204
Ibadullaeva Shaxnoza Prahomovna, Karimova Mahbuba Nutfullaevna. Tasviriy san'atda Amir Temur siymosi	206

---

ЎЗБЕКИСТОН RESPУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ БУХОРО ДАВЛАТ  
УНИВЕРСИТЕТИ

МУСИҚА ТАЪЛИМИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО МУСИҚА  
ФОЛЬКЛОРИНИНГ ТАРИХИЙ-  
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ  
МАСАЛАЛАРИ**

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

19 октябрь

Бухоро - 2021



terish qoidalarini yaxshi bilish poydevor konstruktiviyasining to'g'ri tanlab olganligidadir. Minorai kalon atrofida chiroyli arxitektura ansambli Masjidi Kalon va Miriarab madrasasi joylashgan.

**Buxoro namozgohi** shaharning janubiy chekkasida, qoraxoniylar sulolasining yozgi qarorgohi o'ruida barpo etilgan (1119). Masjid binosi dastlab pishiq g'ishtdan oddiy qilib qurilgan va atrofi baland devor bilan o'ralgan. Oldida baland minbar va chiroyli mexrob bor. Mexrobgacha ishlangan nafis o'ymakorlik bezaklari to'la saqlangan. Masjid xonasining oldiga baland, salovatli peshtoq, yonlariga toqli eshik va tepasiga gumbaz ishlangan. Binoning ichki-orqa devorida bezak va naqshlar saqlangan. Masjid arxitekturasida mexrob va uning atrofida ishlangina bezaklar alohida ajralib turadi. Masjid arxitekturasida Buxoro me'morligi an'alari o'z ifodasini topgan. Buxoroni xaqi ravishda "sharaf manzili", "saltanat Ka'basi" va "mashhur kishilar to'planadigan joy" deb atashgan. Qadimiy Buxoroning ziynati va nodirligi uning betakror arxitektura yodgorliklaridadir. Buxoro bir qancha asrlar davomida Turkiston shaharlari o'rtasida etakchi mavqeni egallab turdi. Bu davrda humardanchilik, savdo, qurilish san'ati, fan, adabiyot, san'at ravnaq topdi. Buxoroda madaniyat yodgorliklari ko'p bo'lib, ular Buxoroni muzey-shahar deb atashga huquq beradi.

Shu bilan birga xalqimizning har bir intilishi, tashabbusida, oldinga qo'yilgan ezgu qadamda ajdodlarimizning uyg'oq va madadkor ruhi sezilib turibdi. Yosh avlodni tarbiyalashda ona vataniga sadoqatli bo'lishiga va ko'z qorachig'iday asrashga da'vat qiladi. O'quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'quvchini kasbiy faoliyatga yo'naltirishda individual psixologik xususiyatlarini inobatga olishning muhim jihatlari. Kasb-Hunar Ta'limi. Ilmiy –uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal Toshkent- 2019 B. 22- 25
2. "Наблюдение природы и постановка " "Молодой учёный" международный научный журнал стр 1596 – 1600 2016 год Часть XV

## **SHARQ MINIATYURASI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Avliyakulova Nafisa Muzafarovna**

BuxDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasasi o'qituvchisi

**Umedov Shahzod Shokir o'g'li**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi

12-ITS-18 guruh iqtidorli talabasi

Inson faoliyatining barcha shakllari o'z vazifalarini belgilab beradigan majburiy qoidalarga bo'ysundi. O'rta asr shoirlarning she'rlariga ma'no mazmunga mos keladigan miniatyura asarlarini ijodkor rassomlar qog'ozga o'z ijodlarini yaratishdi.

Miniatyura atamasi ilk marta Sharqda XIX asrda paydo bo'lgan. Miniatyura lotincha "minium" so'zidan olingan bo'lib mitti tasvir degan ma'noni anglatadi. Dastlab miniatyura asarlari kitoblarning chekkasida tabiiy bo'yoqlar yordamida harflar, naqshlar va turli badiiy bezaklar bilan boyatilgan holda yaratilgan. Sharq miniatyura maktablarining o'ziga xos xususiyati Islom diniga bo'lgan munosabatlarni tasvirlar orqali namoyon qilishdir.



Bo'lajak miniatyurachi rassomlarni tayyorlashda ustalar nafaqat rangtasvir usullarini puxta o'rganishgan, balki o'quvchilar tomonidan zarur ko'nikma va bilim olishga e'tibor qaratdilar. Kelajakdagi miniatyurachilarni o'qitish mashhur ustalarning oddiy namunalarini nusxalash bilan boshlandi. Ular qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lgach, vazifalar murakkablashdi. Odatda nusxa ko'chirish kompozitsiyaning alohida elementlari tomonidan amalga oshirildi.

Kompozitsiyaning elementlarini nusxalash orqali talaba tashqi shakllarning ramziylashtirilgan talqinini va kompozitsiyaning rangli yechimini o'zlashtirdi. Kelajakda zamin yaratish maqsadida kerakli ko'nikmalarga erishish uchun miniatyurachi rassomlar hayvonlar va qushlar, o'simliklar va me'moriy tuzilmalarning turli xil tasvirlari bilan chizmalarini to'plashdi, keyinchalik ular o'z ishlarida foydalandilar.

Tajribali rassom ustalarning kompozitsion elementlaridan foydalanishda turli xildagi texnikani qo'lladilar. Tasvirni qo'llashning bunday usullaridan biri "axta" deb ataladi. Ustalarimiz ushbu uslubdan hanuzgacha ganch va yog'och o'ymakorligida qo'llaniladi. Axta usuli bilan rassomlar bir necha yil davomida nozik cho'tka bilan ishlash qobiliyatlarini mukammal egallagunga qadar mashq qildilar. Ba'zan tajribasiz miniatyurachilar o'z asarlarida boshqa qo'lyozmalar bilan butun kompozitsiyadan foydalanib, ularni ko'zguga aylantirdilar. Albatta, bu ta'lim usuli shafqatsiz edi va o'rta asr san'atiga xos edi.

Yaqin va O'rta Sharqda badiiy va ilmiy asarlar to' IX asrning oxirgi choragigacha hattotlar tomonidan ko'chirilib, qo'ldan-qo'lga o'tib kelgan. To'g'ri, Arabiston va Ispaniyasida o'z vaqtida xatni yog'ochga o'yib ko'paytirish usuli ham bo'lgan, ammo bu usul keng rivoj topmagan va tez orada iste'moldan chiqqan.

Qur'onda jonivorlar tasvirini chizmaslik haqida ta'kidlanmagan bo'lsa ham, islom dini asrlar davomida rasm san'atining rivojiga to'siqlik qilib keldi. Arab hattoligining turli xillari ishlab chiqilib, xatning o'zi san'at asariga aylanib qolganligining sababi ham shunday bo'lsa kerak. Qo'lyozma kitoblar haqida hattotlik san'atining bilimdoni A. Murodov: "Sharq mamlakatlarida va O'rta Osiyoda xristian va buddizm dunyosida ko'rilgan hattotlik, xat unsurlari bilan bog'langan naqqoshlik, musavvirlik va xat san'ati asosiga qurilgan badiiy qo'lyozmalar san'ati alohida taraqqiy etgan" deydi.

Fikrimizning isboti sifatida bu davr mo'jaz san'atda mehnat jarayoni, mehnatkash xalq vakillari obrazlari, oddiygina oila hayoti, dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik korxonalari kabilar tasvirini keltirishimiz mumkin. Badiiy adabiyotdagidek, tasviriy san'at markazida ham asosan inson shaxsi, uning hayoti, orzu-umidlari turadi.

Sharq miniatyurasi o'ziga xos bo'lib, u g'arb tasviriy san'atidan farq qiladi. U o'zining yozuv va ichki tuzilishiga ega. Miniatyuraning dastgohli kartinadan farqi





shundaki, diqqat bilan qarashga, kuzatishga, mushohada qilishga mo'ljallangan. Shu san'atning ba'zi tadqiqotchilari musulmon sharq miniatyurasini g'arb davlatlariga xos san'atning real tasviri nuqtayi nazaridan ko'rishga moyillik bildirmoqdalar. Bu masalani mutaxassis olimlardan G.A. Pugachenkova, L.I. Rempel, S.I. Galerkina va boshqalar isbouch bilan isbot qildilarki, san'atda realizm shakli tarixan o'zgargan, shu bilan birga miniatyura san'atining dekorativligi uning obrazli o'ziga xos sharq miniatyurasining realistik, san'ati hisoblanadi va rangtasvirning nodir bir tarmog'ini tashkil etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Abdurasilov S.N.Tolipov "Tasviriy sanat o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulotlar)" Toshkent-2007 yil]
2. [Abdirasilov S. Boymetov B, Tolipov N. Tasviriy san'at. T.:Cho'lpon, 2006yil]
3. [Boymetov B, Abdurasulov S. Chizmatasvir. T.: G'.G'ulom – matbuot ijodiy uy. 2004 yil]
4. [Avliyakulova N.M. "Tasviriy sanat o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma. B.2021yil]

### AMALIY PERSPEKTIVA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA TALABALARNING TASVIRLASH MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Avezov Sherali Naimovich

Buxoro davlat universiteti

Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasida doktoranti

[avezov.sh.n@mail.ru](mailto:avezov.sh.n@mail.ru)

+99893 6224346

Ishankulov Sherali Sharipovich

Buxoro davlat universiteti

Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchi

**Annotatsiya** Maqolada tasviriy san'atning qonun – qoidalari, tasviriy san'atda tasavvurdan rasm chizish ahamiyati va tasviriy san'atda ijod qilgan buyuk rassomlarning fikrlari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** perspektiva, natura, tasavvur, jism, xajm, ufq, nuqta, paralel.

Talabalarni naturadan, xotira va tasavvurdan rasm chizishga o'rgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalarining nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega. Biror bir yuzada jismini xaqqoniy tasvirlash uchun, jismining ko'rinib turgan qismi, unga xos bo'lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlari uyg'unlashishi lozim: tuzilishi, nisbati, hajmi, materiali bo'shliqdagi joylashuvi. Ko'chani o'rtasidan keta turib derazalarga qarasa, ular xuddi qisqarib boraётgandek. Aslida esa ularning o'lchami o'zgarmaydi. Parallel temir yo'l releslari, olisga qaralganida, ufq tomonga qarab birlashib, bir nuqta bo'lib ko'rinadi, sim eg'ochlar binolar, daraxt va odamlar bizdan uzoqlashgani sari kichrayib boradi. Uzoq masofalarda katta hajmdagi jismlar tekis bo'lib, noaniq belgilar, chiziqlar va bo'laklar shaklida ko'rinadi. Jismlarning bunday o'zgarishi ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Ushbu qonunlar insonning ko'rish qobiliyatiga, jismlarning masofa o'zgarishinatisijasida qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bularni